

HOZIRGI O‘ZBEK PUNKTUATSIYASIGA DOIR NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR TALQINI

Nurmurotov Ilhom Bekmurod o‘g‘li
*Turon universiteti nodavlat oliy ta‘lim
muassasasi Sharq tillar kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya : *Ushbu maqolada o‘zbek tilida qo‘llangan tinish belgilariga doir nazariy muammolar hamda ularning amaliyot jarayonida nomutonosiblikni yuzaga chiqargan o‘rinlariga to‘xtalib o‘tilgan. Bundan tashqari, yozuv va tinish belgilarining taraqqiyoti va bir-biriga ta‘siri hamda badiiy asarlarda ijodkorning tinish belgilaridan poetik maqsadda individual foydalanishi qiyosan tahlil etilgan.*

Tayanch so‘zlar: *tinish belgilari, muallif punktuatsiyasi, ishoraviy sinonimiya, ajratilgan bo‘lak, qo‘shma gap, bog‘lovchisiz qo‘shma gap.*

INTERPRETATION OF THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS OF CURRENT UZBEK PUNCTUATION

Annotation: *This article focuses on the theoretical problems of punctuation used in the Uzbek language and the places where they caused imbalance in the process of practice. In addition, the development of writing and punctuation marks and their influence on each other, as well as the individual use of punctuation marks by the artist for poetic purposes in artistic works are comparatively analyzed.*

Key words: *punctuation, author’s punctuation, denotative synonymy, separate clause, conjunction, non-conjunctive clause.*

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ И ПРАКТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПУНКТУАЦИИ

Аннотация: *В данной статье основное внимание уделяется теоретическим проблемам пунктуации, используемой в узбекском языке, и местам, где они вызывали дисбаланс в процессе практики. Кроме того, сравнительно анализируется развитие письма и знаков препинания и их влияние друг на друга, а также индивидуальное использование знаков препинания художником в поэтических целях в художественных произведениях.*

Ключевые слова: *пунктуация, авторская пунктуация, денотативная синонимия, отдельное предложение, союз, несоставное предложение.*

Ma‘lumki, yozma nutq kommunikativlik vazifasi jihatdan kishilik jamiyati hayotida muhim ahamiyatga ega sanaladi. Bu jarayon “uch qism birligidan iborat: grafika, orfografiya, punktuatsiya”. Adabiy tilning og‘zaki shakli so‘z, tovush, gap,

intonatsiya, pauza bilan bog'liq bo'lsa, yozma shakli harf, yozuv, tinish belgilari bilan uzviy aloqada. Bundan kelib chiqadiki, punktuatsiya ham jamiyat hayoti va taraqqiyotida yozma nutqning bir qismi sifatida asosiy o'rin kasb etadi.

Puntuatsiya (lot. punktum – nuqta) – tinish belgilari tizimi va ulardan foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan va qat'iy belgilangan qoidalar majmuasi. Bu termin ikki ma'noda: tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi qonun-qoidalar majmuyiga va tinish belgilarining o'ziga nisbatan ishlatiladi. Puntuatsiya nuqta, interval, joy ma'nolarini anglatsa-da, fanda nutq oqimidagi intonatsion-prasodik pauzalarni, yozuvda ifodalanadigan turli shartli belgilar yig'indisini anglatadi. Ushbu belgilar tinish belgilari, punktogrammalar, puktemalar, prosodemografemalar, punktuatsion belgilar nomi bilan yuritiladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, bugungi kunda tinish belgilari fonografemalar tarkibidagi muhim belgilar tizimi (prosodemografema) bo'lib, yozma nutqning semantik, intonatsion va grammatik bo'linishining asosi sifatida qo'llaniladi. Bu belgilar tizimi yozma nutqni mantiqli va to'g'ri anglashda, matn shaklini ixchamlash hamda ularning o'zaro semantik-grammatik munosabatlarini anglashda muhim grafik belgilar sifatida foydalaniladi. Yozma matnning mazmuni, ma'no ottenkalari, sintaktik strukturasi, bu qismlar orasidagi semantik va grammatik munosabatlarni aniqlashda tinish belgilarining roli muhimdir.[1.11-b]

Tinish belgilari jumla tarkibidagi so'zlarning semantik va grammatik munosabatlarini yuzaga chiqarish bilan bir qatorda, fikrni ta'kidlab, ajratib ko'rsatishga yordam beradi. Ularning qo'llanish o'rinlarini bilish, bundan tashqari, funksional imkoniyatlari muallifning o'z fikrini yozma ravishda to'g'ri yetkazishga yordam beradi. Mutolaa davomida bu jarayon yozuv vositsida yetkazilgan emotsional-ekspressiv holatlarni tez va tabiiy anglashga ko'maklashadi. Tinish belgilari yozma nutqning turli ustsegment bo'linishlarini aks ettiradi, alohida so'zlar va so'z turkumlari o'rtasidagi mantiqiy-mazmuniy aloqa va munosabatlarni, yozma matn qismlarining turli semantik o'rinlarini ko'rsatadi.

Bugungi kunda tinish belgilari o'zida ma'lum funksiyalarni jamlagan me'yorlashtirilgan belgilar tizimidir. Xususan, Me'yor o'zgaruvchan kategoriya bo'lib, yozuvning takomillashuvi, qolaversa, tilshunoslikda qo'lga kiritilgan yutuqlar punktuatsion me'yorlarni ham o'zgarib turishiga sababchi bo'ladi.[2.55-b] Bu o'zgarishlar o'z navbatida amaliyot jarayonida ham turli muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu jarayonlar tahqiqida quyidagi holatlarni ko'rsatib o'tish mumkin:

Dastlabki punktuatsion belgilar yozuv tabiatidan kelib chiqqan holda o'zida ayrim funksiyalarnigina jamlagan va bu qoidalar tadqiqotchilar tomonidan me'yorlashtirilgan. Xususan, eski o'zbek yozuvi tabiatiga xos imlo va punktuatsion me'yorlar Abdurauf Fitrat hamda Ashurali Zohiriyning ilmiy qarashlarida o'z aksini topgan. Abdurauf Fitrat tinish belgilari bajaradigan vazifalarni belgilashda nuqta, nuqtali vergul, so'roq, tire, qavs kabi punktemalarda bittadan funksiyasini, vergul, undov, qo'shtirnoq kabi tinish belgilariga xos to'rta funksiyani, bundan tashqari, ko'p nuqtaga xos uchta funksiyani keltirib o'tadi.[3.210-213-b] Ushbu vazifalar keyingi

tadqiqotlarda ham o'z aksini topgan. Yuqoridagi tinish belgilari tadqiqida tire belgisi defisdan farqlanmagan. Tinish belgilari va defisga xos sifatlar M.Mirtojiyevning "Hozirgi o'zbek tili" o'quv qo'llanmasida quyidagicha ta'kidlanadi: "Tinish belgilari qatoriga biz, garchi orfografik belgi bo'lsa-da, defis (-) ni ham kiritmoqchimiz. Bu bilan defis tinish belgisi deb qayd etilmoqchi emas: uni faqat tinish belgilari oldidan berish mumkin".[4.64-b] Ushbu qo'llanmada defisga xos sakkizta funksiya keltirib o'tilgan.

Punktuatsion me'yorlar keyingi tadqiqotchilar tomonidan ishoroviy polisemiya hamda ishoraviy omonimiya hodisalari sifatida yangi funksiyalar bilan boyitiladi. Xususan, K.Nazarov o'z tadqiqotlarida "Tinish belgilari va yozma nutq" hamda "O'zbek tili ishora-imlo qoidalari" qo'llanmalarida nuqtaga xos o'n uchta funktsiyani keltirib o'tadi.[1.32-36-b] Bu vazifalardan dramatik asarlarda har bir qahramonning nomidan so'ng, ergash gapdan so'roq ma'nosi, avtosemantik gapdan xabar ma'nosi anglashilgan ergash gapli qo'shma gaplar, maqola muallifini ko'rsatuvchi ism, familiyalardan so'ng, «Davomi ikkinchi betda», «Davomi bor», «Boshi o'tgan sonlarda» kabi jumalardan keyin yopiluvchi qavcdan oldin, murakkab raqamlarni (sonlarni) sinflarga bo'lib ko'rsatish uchun, remarka ko'rinishidagi gaplar oxiriga nuqta qo'yilishi (remarka personaj nomidan keyin kelsa, nuqta qo'yilmaydi) kabi funksiyalar bugungi punktuatsion me'yorlarda aks etmagan. Murakkab raqamlarni (sonlarni) sinflarga bo'lib ko'rsatish bugungi me'yorlarda aks etmasa-da, uning o'rnida hozirgi kunda intervaldan foydalaniladi. Bundan tashqari, So'roqqa xos to'rtta funksiya, undovga xos uchta funksiya, vergulga xos o'n oltita funksiya, nuqtali vergulga xos uchta funksiya, ikki nuqtaga xos beshta funksiya, ko'p nuqtaga xos beshta funksiya, tirega xos o'n ikkita funksiya, qavsga xos to'rtta funksiya, qo'shtirnoqqa xos yettita funksiya misollari bilan keltirib o'tilgan. Shuningdek, M.Mirtojiyevning "Hozirgi o'zbek tili" hamda B.O'rinboyev "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv qo'llanmalarida ham yuqoridagi kabi tinish belgilariga xos ayrim o'zgarishlarni ko'rish mumkin.

B.Bahridinova "Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari" qo'llanmasida boshqa tadqiqotchilardan farqli ravishda tinish belgilarining vazifalarini zamonaviy kommunikativ jarayon bilan bog'laydi va yangi funksiyalarni belgilashda punktuatsion uzuslarning me'yorlashuvini ko'rsatib o'tadi. Xususan, nuqtaning qo'llanishi internet saytlarini belgilashda ishlatilishi: www.xs.uz, www.marifat.uz, info@marifat.uz, bundan tashqari, qisqartirilganlikka ishora maqsadida qo'llanganda ko'proq tipografik belgi xarakterida bo'lishi, arifmetik amallarni ko'rsatishda ishlatilganda matematik belgi hisoblanishi ta'kidlangan. Ushbu tadqiqotlarda matematikada ishlatilgan ikki nuqta, nuqta, tire kabi tinish belgilar punktuatsion vazifa bajarmaganligi sababli tinish belgilariga xos vazifalar qatorida berib o'tilmagan.

N.Mahmudov "O'zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari" hamda "O'zbek tili me'yorlari (punktuatsiya)" kitoblarida tinish belgilariga xos ayrim odatlarni me'yorlashtirgan. Ushbu tadqiqotlarda tinish belgilariga xos punktuatsion

sinonimiya, muallif punktuatsiyasi kabi hodisalarga to'xtalib o'tilmagan. Bu esa tinish belgilarining me'yorlashuvi jarayonida muammoli holatni yuzaga keltirgan. Masalan, Bog'lovchisiz qoshma gapning ikkinchi qismi izoh, ilova xarakteriga ega bo'lsa, ular orasiga tire qo'yiladi: Esladi – u sevgilisi Layli haqida gapirgandi. (N.Jaloliddin);[5.92-b] Qo'shma gapning keyingi qismi oldingi qismdagi mazmuni umuman izohlab kelsa, ikki qism orasiga ikki nuqta qo'yiladi: Musofir muxlis uni darrov tanidi: u tinmay kim tanisin! (E.A'zam) [5.99-b]

Yuqoridagi datqiqotlardan ko'rinib turibdiki, tinish belgilariga oid me'yorlar yozuv taraqqiyoti davomida o'zgarib turgan. Ayrim tinish belgilariga yangi funktsiya yuklangan bo'lsa, ba'zi tinish belgilarining funktsiyalari o'z vazifalarini yo'qotgan.

IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. –Тошкент, 1974.
2. Bahridinova B. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent: «Akademnashr», 2015.
3. Abdurauf F. Tanlangan asarlar. –Toshkent: «Ma'naviyat», 2009.
4. Mirtojiyev M. Hozirgi o'zbek tili. –Toshkent: «O'qituvchi», 1992.
5. Mahmudov N. va b. O'zbek tili – punktuatsiyasining asosiy qoidalari – Toshkent: «O'zbekiston», 2015. 99-bet